

ONOMASTIK LUG‘ATLAR VA ULARNING TASNIFI

Rajabov Feruz Umarqulovich
Roziqova Hulkar Toshkentovna
Norov Odiljon Murodullayevich
Ahmadjonov Oxunjon Azamat o‘g‘li
QarMII akademik litseyi o‘qituvchilari

Annotatsiya. *Bu maqolada onomastik lug‘atlar va ularning onomastik birliklarning izohlanishiga ko‘ra turlari haqida fikr yuritilgan. Onomastik lug‘atlarning mazmuni manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *leksikografiya, lug‘at, onomastik lug‘at, ornitonim, poetonim.*

Leksikografiya yoki lug‘atshunoslik tilshunoslikning lug‘at tuzish ishi bilan shug‘ullanuvchi va u bilan bog‘liq masalalarni, lug‘atlarning turlarini o‘rganuvchi sohasidir. Lug‘at deb so‘z va iboralarning ma‘lum maqsad bilan to‘plangan, tartibga solingan, kitob yoki boshqa shakldagi to‘plamiga aytiladi. Lug‘atlar turli maqsadlarda tuzilgani uchun uning turlari juda ko‘p. Lug‘atlarning bir turi onomastik lug‘atlar deb nomlanadi, chunki bunday lug‘atlarda toponim, gidronim, oykonim, antroponim, oronim, urbonim, etnonim, kosmonim kabi onomastik birliklar alifbo tartibida keltirilib, ularning ma‘nosi izohlanadi, orfografik normasi qayd etiladi.

O‘zbek toponimlari lug‘atining ilk namunasi sifatida “Devonu lug‘otit turk”¹ni qayd qilish lozim. “Devon” muallifi geografik nomlar tarkibida qo‘llanuvchi bir qator so‘zlarning ma‘nosini ochib bergan edi. Uning toponimlardan u yoki bu atamaning qo‘llanishi va kelib chiqishi haqida aytilgan mulohazalari ko‘pincha u yoki bu toponimning ma‘nosini aniqlashda yagona ishonchli tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi².

Bugungi kunda onomastik lug‘atlarning ko‘plab turlari tuzilgan va nashr etilgan. Masalan, “Z.Do‘simov va X.Egamovlar hammuallifligida yaratilgan “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” (1977), B.O‘rinboyevning “Jizzax viloyati toponimlari” (1992), “Samarqand viloyati toponimlarining izohi” (1997), Q.Hakimovning “Jizzax viloyati toponimlari” (2014), M.Mirakmalov va M.Avezovlarning “Vobkent tumani toponimlari” (2017), “Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari” (2020), “O‘zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistika” (2021), “Arid o‘lkalar toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari” (2021) kabi lug‘atlar fikrimizni dalillaydi. Olimlarimiz O‘zbekistonning barcha hududlaridagi toponimlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlarni ham tuzishgan. T.Nafasovning besh mingdan ortiq toponimlarni o‘z

¹ Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I т. – Тошкент: Фан, 1960, 1961, 1963; Индекс луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 544 б.

² Махпиров В. Тюркские топонимы в “Дивану лугатит турк” // Советская тюркология. – Баку, 1983. 1. – С. 34.

ichiga qamrab olgan “O‘zbekiston toponimlari rining izohli lug‘ati” (1988), S.Qorayevning “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” (2005) kitoblari shular jumlasidandir. O‘zbek tilshunosligida onomastik lug‘atlarning quyidagi turlari tuzilgan:

I. Onomastik izohli lug‘at. Bu tur lug‘atning ikki xili tuzilgan: a) matndagi onomastik birliklar izohli lug‘ati (tarixiy asarlardagi onomastik birliklar izohli lug‘ati, badiiy asardagi onomastik birliklar izohli lug‘ati.); b) onomastik terminlar izohli lug‘ati. Bu tur lug‘atlarning quyidagi turlari mavjud: 1) toponimik izohli lug‘at; 2) antroponimik izohli lug‘at; 3) poetonimlar izohli lug‘ati; 4) onomastik birliklar izohli lug‘ati va boshqalar.

II. Onomastik imlo lug‘ati. Imlo lug‘atlarning quyidagi turlari yaratilgan. a) toponimik (geografik) imlo lug‘at (H.Hasanov, S.Qorayev). b) antroponimik imlo lug‘at (E.Begmatov) va boshqalar.

O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar yaratilgan onomastik lug‘atlarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Antroponimik lug‘atlar. Bunday lug‘atlarda kishi ismlari, laqablar va taxalluslar izohlanadi. Antroponimik lug‘atlarning yaratilishida E.Begmatovning hissasi katta. Chunki olimning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (1972), “Ism chiroyi” (1994), Menajiyev Y., Azamatov X., Abdurahmonov D., Begmatov E. Ismingizning ma‘nosi nima? – Toshkent: Fan, 1968. – 100 b.; Begmatov E. O‘zbek ismlari. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 208 b.; Begmatov E., Kenjayeva S. O‘zbek ismlari ma‘nosi (o‘quv izohli lug‘at). – Toshkent: Fan, 2007. – 96 b.; Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma‘nosi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 608 b.; Mo‘minova N. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi antroponimlarning izohli lug‘ati. – Qarshi: “Fan va ta‘lim” nashriyoti, 2021. 160 b. va boshqalar.

2. Toponimik lug‘atlar. Bunday lug‘atlarda joy nomlari, geografik nomlar, qisman suv inshootlari nomlari (gidronimlar) izohlanadi, ularning adabiy-orfografik jihatdan me‘yoriy ko‘rinishlari qayd qilinadi. O‘zbek lug‘atshunosligida toponimik lug‘atlarning juda ko‘p turlari yaratilgan. Bunday lug‘atlarga Do‘simov Z., Egamov H. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977. – 174 b.; Qorayev S. Geografik nomlar ma‘nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978. - 203 b.; S.Qorayevning “Geografik nomlar ma‘nosini bilasizmi?” (Toshkent, O‘zbekiston, 1970. – 190 b.; Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati (Janubiy O‘zbekiston hududlari materiallari asosida). – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 288 b.; O‘rinboyev B. Jizzax toponimlarining ta‘biri. – Samarqand, 2007. – 80 b.;

O‘rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohi). – Samarqand: Zarafshon, 2003. – 281 b.; Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 240 b.; O‘rinboyev B., Xoliqov O. Maktab toponimik lug‘ati. – Samarqand, 2004. – 92 b.; Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati

(maktab o'quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – 88 b.; Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi (Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi). – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2009. – 432 b.; Normurodov M., Nafasov T. Chiroqchinoma (Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani qishloqlari nomining tadqiqi). – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2010. – 168 b.; R.Y.Xudoyberganov va boshqalar O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b. va boshqalar.

3. Etonimik lug'atlar. Bunday lug'atlarda etnonimlar – urug', qabila, xalq, millat nomlari izohlanadi. Turon qavmlari. Kichik ensiklopedik lug'at. Tuzuvchi Zoyir Ziyotov. – Toshkent: “Istiqlol”, 2008. – 232 b. va boshqalar.

4. Ornitonimik lug'at. Bunday lug'atda qush nomlari izohlanadi. Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning izohli lug'ati. – Toshkent, “Navro'z” nashriyoti, DUK. – 154 b. va boshqalar.

5. Joy nomlarining etimologik lug'ati. Enazarov T.J., Yesemuratov A.Y., Jumanazarov J.T., Qodirova Y.T., Jumanazarova G.T. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati. Toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati) «Nodirabegim» nashriyoti. Toshkent – 2019. – 222 b. va boshqalar.

6. Onomastik terminlarning izohli lug'ati. Bunday lug'atda nomshunoslik fanida qo'llaniladigan asosiy terminlar majmui keltiriladi va izohlanadi. Shu kunga qadar S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov, T.Enazarov, N.Oxunov kabi nomshunos olimlarning ishlarida onomastik terminlar u yoki bu darajada to'plangan va izohlangan edi. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan: NamDU nashri, 2006. – 104 b. va boshqalar.

7. Poetonimlar lug'ati. O'zbek tilida yangi lug'atlar sirasiga kiradi. Bunday lug'atda badiiy asarda ijodkorning niyati, maqsadi namoyon bo'ladigan va asarda uslubiy, lingvopoetik yuk olgan har xil turdagi onomastik birliklar jamlangan lug'at. Bunday lug'atdagi onomastik birliklar “gapiruvchi nom”lar, pretsedent nomlar, allyuziv nomlar sifatida o'quvchi yodida qolgan nomlar saralangan. Poetonim lug'atlarni umumiy va xususiy shaklda tuzish mumkin. O'zbek tilshunosligida birinchi poetonimlar lug'ati D.Xudoyberganova, D.Andaniyozovalar tomonidan tuzilgan. Xudoyberganova D., Andaniyozova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. 132 b.; F.Rajabov, Bobur asarlari poetonimlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2022. 104 b. va boshqalar.

8. Badiiy asardagi onomastik birliklar lug'ati. Bunday lug'atda ma'lum bir asardagi barcha onomastik birliklar jamlab, izohlanadi. Saydullayeva Ra'no. Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarning izohli lug'ati. Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. –378 b. va boshqalar.

9. Xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lug'ati. Folklor asarlardagi onomastik birliklar statistikasi, izohi va badiiy estetik vazifalariga ko'ra tuzilgan lug'atlar. Abatov Doston. Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik

birliklarining qisqacha izohli lug'ati. Lug'at. – Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2023 – 62 b. va boshqalar.

Shunday qilib, o'zbek onomastik leksikografiyasida shu kunga qadar antroponimik, toponimik, etnonimik, ortonimik, poetonimik va onomastik birliklar hamda terminlar lug'atlari yaratishda muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Onomastik lug'atlarning yana quyidagi turlari tuzilishi mumkin. Onomastik morfem lug'at, Onomastik yasalish lug'ati, Onomastik talaffuz lug'ati, O'zlashma onomastik birliklar lug'ati.

Kelgusida kosmonimlar, xromonimlar, geortonimlar, ideonimlar kabi boshqa bir qancha onomastik ko'lamlarga oid onomastik birliklarni to'plash, shu asosda lug'atlar yaratish o'zbek lug'atshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, onomastik lug'atlarning shakllanishi, tuzilishi, ularning turlarini o'rganish soha uchun dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I т. – Тошкент: Фан, 1960, 1961, 1963; Индекс луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 544 б.
2. Махпиров В. Тюркские топонимы в “Дивану лугатит турк” // Советская тюркология. – Баку, 1983. 1. – С. 34.
3. Rajabov F. O'zbek onomastikasi. – Qarshi, 2023. – 222 b.